

CHET TILINI O'RGATISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING ROLI VA SAMARADORLIGI

Asila KAMOLOVA

O'zbekiston Davlat Jahon tillar universiteti 1-bosqich talabasi
asilakomalova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada til o'rgatish jarayonida sun'iy intellekt(SI) texnologiyalarining o'рни va ahamiyati yoritilgan. Maqolada sun'iy intellektning kelib chiqishi, uning ta'lim sohasiga kirib kelishi hamda til o'qitishdagi ijobiy ta'sirlari tahlil qilingan. Duolingo, BBC Learning English, Coursera va ChatGPT kabi platformalar misolida sun'iy intellektning interaktivlik, shaxsiylashtirilgan yondashuv va o'qitish samaradorligini oshirishdagi roli ko'rsatib berilgan. Shuningdek, AI texnologiyalari o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga, xatolarini tez aniqlashiga va til ko'nikmalarini rivojlantirishiga yordam berishi ta'kidlangan. Maqola yakunida sun'iy intellektning kelajakda til o'qitish jarayonlarida yanada keng qo'llanishi tabiiy ekani haqida xulosa berilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, til o'rgatish, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta'lim, SI platformalari, DuoLingo, BBC Learning English, Coursera.

I Kirish

Til o'rgatishda sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) texnologiyalarining ta'siri so'nggi yillarda keskin o'sib bormoqda. Sun'iy intellekt (AI) yordamida til o'rgatishning samarali usullari paydo bo'ldi va bular yordamida til o'rganish juda qulayroq bo'ldi. Texnologiyalardan ko'p foydalanish Z(1996 yildan 2012yillar oralig'i) avlodining ular bilan chambarchas bog'liqligidadir. Bugungi kunda ko'pchilik sun'iy intellektlar yordamida til o'rganmoqda va buning ta'siri sezilarli darajada yaqqol ko'zga tashlanadi. Hozirgi davrda sun'iy intellekt texnologiyalari har bir jabhada keng qo'llanilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sun'iy intellektning shakllanishi va turli sohalarga kirib kelishiga zamin yaratdi. Xususan, X. Chen va Hwang (2020) tadqiqotlarida ta'lim jarayonida Alning qo'llanishi o'quvchilarning motivatsiyasi va natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Bugungi kunda sun'iy intellekt ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, til o'qitish metodlarining takomillashuvida muhim o'rin egallamoqda.

II Asosiy qism

2.1 Sun'iy intellekt

Sun'iy intellekt (SI) – bu kompyuter tizimlarining inson aql-idrokiga xos vazifalarni bajarish qobiliyatidir. Atamaning kelib chiqishi: "Sun'iy intellekt" atamasi 1956-yilda AQSHning Dartmut universitetida o'tkazilgan anjumanda amerikalik informatika olimi Jon Makkarti tomonidan birinchi marta ishlatilgan. Hozirgi kunda jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan sun'iy intellektlar bir qator vazifalarni bajarishga moslashtirilgan. U dars jarayonlariga ham ijobiy ta'sir o'tkazmoqda.

Til o'rgatish bo'yicha juda ko'p platformalar mavjud. Misol uchun: Duolingo, BBC Learning English, Coursera kabi platformalar keng qo'llanilmoqda va ta'lim sohasidagi ular o'рни katta. Ayniqsa, til o'qitishda o'qituvchilar ishini yengillashtiradi. Shu bilan birga,



dars jarayonlarini qiziqarli va sifatli bo'lishini ham ta'minlaydi. O'qituvchi til o'qitishda individual tarzda yondashadi va interaktiv o'quv jarayonlarini oshiradi.

Interaktiv o'quv jarayoni – bu o'quvchilarning faoliligini oshirish va bilimlarni samarali o'zlashtirish uchun zamonaviy texnologiyalar va o'zaro muloqotga asoslangan ta'lim uslubi. Sun'iy intellekt texnologiyalari til o'rganish jarayonini ham osonlashtirmoqda. Masalan, ChatGPT kabi sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar orqali ingliz tilini o'rganish mumkin. Ular foydalanuvchilarga interaktiv mashqlar, suhbatlar va boshqa o'quv materiallarini taqdim etadi. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida til o'rganish vositalari o'quvchilarga til ko'nikmalarini yaxshilash uchun ko'rsatmalar va mashqlarni taqdim etadi. Ushbu ilovalar sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida til bilish darajasini oshirishni va til o'rganishni osonlashtiradi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari til o'rgatishda analitik imkoniyatlar orqali ham katta yordam bermoqda. SI tizimlari o'quvchining bajarilgan mashqlari, nutq tezligi, matnni tushunish ko'nikmasi yoki grammatik xatolarini tahlil qilib, ular asosida individual o'quv rejasini shakllantira oladi. Bu esa an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, har bir o'quvchining o'z sur'ati bilan o'qishiga yordam beradi. Sun'iy intellekt yordamida o'quvchi turli mavzularda virtual suhbatlar olib borishi, real muloqotga yaqin bo'lgan mashqlar bajarishi va to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishi mumkin.

Masalan, SI yordamida o'rganuvchilari mehmonxona bron qilish, do'konda xarid qilish yoki aeroportdagi suhbat kabi holatlarni virtual ravishda mashq qilishi mumkin. Bu tilni amaliy qo'llashni osonlashtiradi.

AI texnologiyalari shuningdek multimodal ta'limni qo'llab-quvvatlaydi. Ya'ni, video, audio, matn, interaktiv testlar va vizual materiallar birlashtirilgan holda taqdim etiladi. Bunday yondashuv turli o'quv uslublariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun ayniqsa samarali bo'ladi. Jumladan, ba'zi o'quvchilar eshitish orqali, ayrimlari ko'rish orqali, boshqalari esa amaliy mashq orqali yaxshiroq o'rganadi. Sun'iy intellekt esa ushbu ehtiyojlarni avtomatik ravishda inobatga oladi. Bundan tashqari, AI yordamida xorijiy tilda to'g'ri talaffuz qilish ham osonlashmoqda. Ko'plab platformalarda ovoz tanish (speech recognition) texnologiyasi mavjud bo'lib, u foydalanuvchilar nutqini aniqlik bilan tahlil qiladi va kerak bo'lsa, qayta talaffuz qilish bo'yicha tavsiyalar beradi. Shu orqali o'quvchilar talaffuzdagi xatolarini dastlabki bosqichdayoq to'g'rilab borish imkoniga ega bo'ladi. Sun'iy intellekt o'qituvchilar uchun ham katta qulaylik yaratadi. Ular AI yordamida uy vazifalarini avtomatik tekshirish, talabalarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilish va o'quv dasturlarini moslashtirish imkoniyatiga ega. Bu nafaqat vaqtni tejaydi, balki darsning sifatini oshiradi, chunki o'qituvchi ko'proq ijodiy jarayon va o'quvchilar bilan jonli muloqotga e'tibor qaratishi mumkin.

Eng ko'p samara berayotgan platformalar:

II Duolingo

Bundan tashqari Duolingo – bu chet tillarini bepul o'rgatadigan mashhur onlayn platforma.. Unda ingliz tili, koreys tili, turk tili, nemis tili, fransuz tili va yana ko'plab tillarni interaktiv tarzda o'rganish mumkin.

Duolingoning asosiy xususiyatlari

1. Interaktiv darslar



Har bir dars kichik mashqlar ko'inishida bo'ladi: so'z yodlash, tarjima, gap tuzish, tinglab tushunish.

2. O'yinlashgan tizim (gamification)

XP ball to'plash

Darajalarni oshirish.

III BBC Learning English

BBC Learning English. – ingliz tilini o'rganish uchun dunyodagi eng ishonchli manbalardan biridir.

Uning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Real nutqqa yaqin materiallar

Platforma haqiqiy ingliz tilida yaratilgan audio va video darsliklarni taklif qiladi. Bu o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasini kuchaytiradi.

2. Professional tarzda ishlab chiqilgan darslar

Darslar BBC mutaxassislari tomonidan tayyorlangan bo'lib, grammatika, lug'at, talaffuz va eshitish ko'nikmasi bo'yicha aniq va sifatli tushuntirishlar beriladi.

3. Bepul ta'lim imkoni

Platformaning barcha materiallari bepul bo'lib, har qanday darajadagi o'quvchi foydalanishi mumkin.

4. Qo'shimcha topshiriqlar va viktorinalar

Darslardan keyin mustahkamlash uchun testlar va mashqlar taqdim etiladi.

IV ChatGPT – sun'iy intellekt asosida ishlaydigan kuchli til modeli bo'lib, til o'rganish jarayonida keng imkoniyatlar yaratadi:

1. Shaxsiylashtirilgan o'qitish

ChatGPT o'quvchining saviyasini aniqlab, unga mos mashq, matn va tushuntirish yaratadi.

2. Real vaqt davomida xatolarni tahlil qilish

3. O'quvchi yozgan matndagi grammatik xatolarni aniqlab, sababini tushuntirib beradi. (izohi bilan birga batafsil tushuntirib beradi)

4. Gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish. Bunda o'quvchi bilan mavzuli suhbatlar olib boradi, muloqotga asoslangan mashqlar yaratadi.

5. Yangi darslar generatsiyasi

Istalgan mavzuda mashqlar, dialoglar, testlar va matnlar yaratib beradi.

Coursera – dunyodagi yetakchi universitetlar tomonidan yaratilgan onlayn kurslarni taklif etuvchi platforma bo'lib, til o'rganishda ham keng qo'llaniladi. Uning xususiyatlari:

1. Universitet darajasidagi kurslar

Kurslar Michigan University, Arizona State University kabi nufuzli oliygohlar tomonidan ishlab chiqiladi.

2. Daraja olish

Kurslarni yakunlagan o'quvchi xalqaro darajada tan olingan daraja olishi mumkin.

3. Mustaqil o'qish jadvali

O'quvchi darslarni o'ziga qulay vaqtda o'rganishi mumkin

4. Nazariy va amaliy topshiriqlar uyg'unligi

Har bir modulda videodars, matnli material va mustahkamlash mashqlari mavjud.

III Xulosa



Sun'iy intellekt texnologiyalari til o'rgatish jarayonini zamonaviy, samarali va interaktiv shaklga keltirmoqda. AI yordamida o'quvchilar mustaqil ravishda ham oson va qulay tarzda til o'rganishi, o'z xatolarini tez aniqlashi, nutq ko'nikmalarini takomillashtirishi mumkin. O'qituvchilar uchun esa sun'iy intellekt kuchli yordamchi bo'lib, darslarni rejalashtirish, baholash va individual yondashuvni ta'minlashda katta qulaylik yaratadi. Kelajakda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi bilan til o'qitish jarayonlari yanada samarali va innovatsion shaklga o'tishi tabiiydir. Bu platformalarning barchasi sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarga til ko'nikmalarini samarali mustahkamlash, o'z darajasini baholash va o'z-o'zini o'qitish imkonini beradi. Ular o'qituvchilar uchun ham katta yordamchi vosita bo'lib, darsning sifatini oshiradi va ta'lim jarayonini osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmatova, D. B. (2023). Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish. Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti.
2. Bekpulatov, X. B. (2022). Educational Research in Universal Science. Tashkent: Academic Press.
3. Farxodova, S. R. (2024). Digital technologies in modern education. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15176095>
4. Chen, X., & Hwang, G.-J. (2020). Artificial Intelligence in Education: Trends and implications. *Educational Technology & Society*, 23(3), 1–18.
5. Shoqulova, L. T. (2021). Problems and Solutions of Scientific and Innovative Research. Samarkand: Science and Innovation Publishing.